



«TASDIQLAYMAN»

«UMS» MChJning Axborot xavfsizligi va
rejim bo'yicha direktori

 B.A. Olmatov

2026-yil « 22 » 

**«UMS» MChJning Toshkent, Andijon, Buxoro, Guliston, Jizzax, Qarshi,
Navoiy, Namangan, Nukus, Samarqand, Termiz, Urganch, Farg'ona,
Chirchiq, Shahrisabz shaharlaridagi mavjud obyektlari uchun videokuzatuv
tizimini yetkazib berish bo'yicha**

TEXNIK TOPSHIRIQ

«UMS» MChJ («Universal Mobile Systems» mas'uliyati cheklangan jamiyati)
ehtiyojlari uchun

Toshkent shahri
2026-yil

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

1.1 Buyurtmachi Ijrochiga «UMS» MChJ obyektiga **1-ilovaga** muvofiq videokuzatuv tizimini yetkazib berishni topshiradi.

1.2 Videokuzatuv tizimi kuzatuv uchun ajratilgan joylarda sodir bo'layotgan hodisalarni kecha-kunduz vizual kuzatish, nazorat qilish va qayd etish (video qayd qilish) uchun o'rnatiladi.

2. VIDEOKUZATUV TIZIMI (VKT) ELEMENTLARIGA QO'YILADIGAN UMUMIY TALABLAR

Videokuzatuv tizimi quyidagi vazifalarni bajarishi lozim:

2.1 Obyekt hududidagi vaziyatni tunu kun vizual va ayrim joylarda audio nazorat qilish, xodimlarning harakatlarini kuzatish.

2.2 Tizim video va audio ma'lumotlarni masofaviy aloqa kanallari orqali bir nechta uzoqdagi foydalanuvchilarga uzatish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

2.3 Tizim qo'riqlanadigan xonalardan xavotirli xabarlar kelib tushganda favqulodda vaziyatni aks ettirish va qayd etish, operatorga yuzaga kelgan xavotirli holat bilan bog'liq tasvirlar va audio yozuvlarni avtomatik ravishda ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim (qo'riqlanadigan xonaga ruxsatsiz kirish, qo'riqlanadigan hududda shubhali harakatlanish va hokazo).

2.4 Barcha o'rnatilgan kameralardan keladigan xavotirli vaziyatlarni uzluksiz ravishda video va audio tarzda yozib olish.

2.5 Videotasvirda harakatni aniqlash tizimi yordamida harakatni (faollikni) aniqlash.

2.6 Bir nechta kameradan tasvirni turli rejimlarda bitta monitorga chiqarish imkoniyati.

2.7 Videokuzatuv tizimi moslashuvchan bo'lishi, konfiguratsiyasini oson va tez o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'lishi, shuningdek, kengaytirilishi mumkin bo'lishi kerak – zarur bo'lganda minimal xarajatlar bilan qo'shimcha uskunalarni qo'shish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim.

3. VKT GA QO'YILADIGAN TEXNIK VA FUNKSIONAL TALABLAR

3.1 Videokuzatuv tizimi ma'lumotlarni uzatish va qayta ishlashning raqamli texnologiyalariga asoslangan bo'lishi shart.

3.2 Videokameralar soni – **1-ilovaga muvofiq**.

3.3 Yechim 2025-yil va undan keyin ishlab chiqarilgan IP-videokameralarga asoslangan bo'lishi kerak.

3.4 Kameralarning ishlanishi: hududning murakkabligi va kuzatuv zonasining xususiyatlariga qarab korpusli yoki gumbazli bo'lishi lozim.

3.5 Videokameralarning tasvirga olish aniqligi – kamida 1920x1024 (5 megapiksel).

3.6 Videotasvirni siqish formati/qo'llab-quvvatlanadigan kodeklar - H.264, H.264+, H.265, H265+.

3.7 Ichki kameralarning yorug'likka sezgirligi kamida 0,01 lyuks bo'lishi kerak.

3.8 Videokameralar ta'sir masofasi kamida 30 metr bo'lgan infraqizil yoritgichga ega bo'lishi shart.

3.9 Barcha videokameralar, o'rnatilish joyidan qat'i nazar, kamida IP67 himoya darajasiga ega bo'lishi lozim (har qanday ob-havo sharoitida ishlaydigan, namlikdan himoyalangan).

3.10 Videokameralar ham tashqi ta'minot blokidan, ham Ethernet tarmog'i orqali 802.3af (PoE) protokoli bo'yicha quvvatlanish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim.

3.11 Videokameralardan olingan ma'lumotlar loyiha doirasida Ijrochi tomonidan yetkazib beriladigan videoregistratorlarda jamlandi.

4. VKT DASTURINI SOZLASH TALABLARI

Yetkazib beruvchi Buyurtmachiga barcha zarur dasturiy ta'minot, litsenziya shartnomalari va mahsulotlarning seriya raqamlarini taqdim etadi.

5. YETKAZIB BERUVCHIGA (IJROCHIGA) QO'YILADIGAN TALABLAR

5.1 Yetkazib beruvchi (Ijrochi) to'lovga layoqatsiz yoki bankrot bo'lmasligi, tugatish jarayonida bo'lmasligi, mol-mulki xatlanmagan, iqtisodiy faoliyati to'xtatilmagan bo'lishi lozim.

5.2 Belgilangan xizmatlarni taqdim etishda kamida 3 (uch) yillik tasdiqlangan ish tajribasiga ega bo'lishi kerak.

6. TEXNIK TAKLIFNING TARKIBIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Xarid qilish jarayoni ishtirokchisining texnik taklifida quyidagilar ko'rsatilishi shart:

- Narxi ko'rsatilgan jihozlar ro'yxati.
- Kafolat muddati va shartlari.
- Yetkazib berish muddati va shartlari.

7. TEXNIK QO'LLAB-QUVVATLASH SHARTLARI

7.1 Ijrochi O'zbekiston Respublikasi hududida uskunani ishlab chiqaruvchining xizmat ko'rsatish markazi mavjudligini tasdiqlashi shart.

7.2 Ijrochi texnik qo'llab-quvvatlash xizmatining yagona aloqa raqamini taqdim etishi lozim.

7.3 Uskunalarining ishlash qobiliyatini tiklash masalalari bo'yicha maslahatlar kafolat muddati davomida bepul va cheklanmagan miqdorda ko'rsatiladi.

7.4 Uskunalarni tiklash bo'yicha zarur ishlarni bajarish va nosoz qismlarni almashtirish kafolat muddati davomida bepul amalga oshiriladi.

7.5 Ijrochi quyidagi usullar bilan murojaatlarni berish imkoniyatini ta'minlashi kerak:

- Ijrochi kompaniyasining veb-sayti orqali;
- O'zbekiston hududidagi bepul telefon orqali;
- elektron pochta orqali.

7.6 Texnik qo'llab-quvvatlash va xizmat ko'rsatish darajasiga qo'yiladigan minimal talablar:

7.6.1 Kafolat muddati davomida:

- ikki kun ichida mutaxassisning uskunadan foydalanish joyiga borib ta'mirlashi,
- kafolat holatidagi nosozliklarni ikki kun ichida bartaraf etishi lozim.

7.6.2 Xizmat ko'rsatish markazi omborida ehtiyot qismlar, asbob-uskunalarining mavjudligi. Uskunalarining ishlash qobiliyatini belgilangan muddatlarda tiklashning imkoni bo'lmaganda, uskunani ta'mirlash vaqtida texnik xususiyatlari jihatidan nosoz uskunalariga o'xshash soz uskunalar taqdim etiladi.

7.7 Uskunadan foydalanish bo'yicha kafolat majburiyatlarini cheklovchi kafolat stikerlari, plombalar va shu kabilarga yo'l qo'yilmaydi (masalan, agar ishlab chiqaruvchi bunday imkoniyatni nazarda tutgan bo'lsa, qo'shimcha kengaytirish platalarini, shassi opsiyalarini va boshqalarni o'rnatish imkoniyatini cheklash maqbul emas), ishlab chiqaruvchining texnik shartlariga rioya holatlari qilish bundan mustasno.

8. MAXSUS SHARTLAR

8.1 Yetkazib beriladigan uskunalar yangi bo'lishi, zavod qadoqlarida va muvofiqlik sertifikatini bilan yetkazib berilishi shart.

8.2 Ishtirokchilar bir nechta turli xil takliflar berishi mumkin.

8.3 Narx taklifi batafsil shaklda taqdim etilishi lozim.

8.4 Kafolat muddati davomida uskuna ishdan chiqsa, uni almashtirish uskuna yetkazib beruvchining hisobidan amalga oshiriladi.

8.5. Uskunalar ishdan chiqqan taqdirda, ishtirokchi nuqsonlarni qayd etuvchi dalolatnoma tuzishda, ularni bartaraf etish tartibi va muddatlarini kelishib olishda qatnashish uchun o'z vakilini buyurtmachining xabarnomasi (yozma yoki telefon orqali) olingan kundan boshlab 5 kundan kechiktirmay yuborishi shart. Bunday holda kafolat muddati tegishli ravishda nuqsonlarni bartaraf etish davriga uzaytiriladi.

9. TOVARNI YETKAZIB BERISH SHARTLARI

9.1 Tovar buyurtmachining quyidagi manzildagi hududiga yetkazib beriladi: Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Farg'ona yo'li ko'chasi, 15-uy.

9.2 Barcha soliqlar, yig'imlar, ajratmalar va boshqa to'lovlar, shu jumladan bojxona to'lovlari va yig'imlari, mahsulotni yetkazib berish joyigacha tashish xarajatlari, tara va qadoq qiymati, kafolat majburiyatlari ishtirokchining ariza/taklifi narxiga kiritilgan.

10. TIJORAT SHARTLARI

Yetkazib berish, qabul qilish-topshirish shartlari va muddatlari:

Yetkazib berish manzili: O'zbekiston Respublikasi, 100000 Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Farg'ona yo'li ko'chasi, 15-uy, «UMS» MChJ.

Yetkazib beruvchi tovarning 1-ilovaga muvofiqligini tekshirish uchun tovar namunalarini taqdim etishi shart.

Tovarni yetkazib berish muddati avans to'langan kundan boshlab 30 bank ish kunini tashkil qiladi.

Umumiy qiymatning 15%i miqdoridagi avans to'lovi summasi (oldindan to'lov miqdori) Shartnoma imzolangan kundan boshlab 10 bank ish kuni ichida to'lab beriladi.

Qadoq xalqaro standartlarga mos bo'lishi hamda saqlash va tashishni ta'minlashi lozim.

Markirovkalash xalqaro standartlarga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

Yetkazib beruvchi noto'g'ri qadoq natijasida tovarga yetkazilgan har qanday zarar uchun to'liq javobgardir.

Tovar yangi, avval ishlatilmagan va foydalanilmagan bo'lishi shart.

Tovarni nomenklatura va miqdor bo'yicha qabul qilish «UMS» MChJ tomonidan tovar ko'rsatilgan manzilga yetkazib berilgan vaqtda amalga oshiriladi.

Tovarni sifat bo'yicha qabul qilish «UMS» MChJ tomonidan tovar yetkazib berilgan kundan boshlab 3 kun ichida amalga oshiriladi. Tomonlarning vakolatli vakillari tomonidan imzolangan qabul qilish-topshirish dalolatnomasi «UMS» MChJ tomonidan tovarning miqdori, nomenklaturasi va sifati bo'yicha qabul qilinganligi hamda Yetkazib beruvchi tomonidan topshirilganligining tasdig'i hisoblanadi.

11. XARID QILINAYOTGAN USKUNANING TEXNIK QO'LLAB-QUVVATLANISHI VA SERVIS XIZMAT KO'RSATISH DARAJASIGA QO'YILADIGAN MINIMAL TALABLAR:

Kafolat muddati davomida quyidagilar bajarilishi shart:

Uskunalarni bepul ta'mirlash va almashtirish ishlati.

Nosoz qismlarni bepul almashtirish.

Ikki kun ichida mutaxassisning uskunadan foydalanish joyiga borib ta'mirlashi. Ish kunlari ish vaqtida telefon orqali bepul yordam ko'rsatish.

Kafolat holatidagi nosozliklarni ikki kun ichida bartaraf etish lozim. Xizmat ko'rsatish markazi omborida ehtiyot qismlar mavjud bo'lishi kerak. Uskunalarning ishlash qobiliyatini belgilangan muddatlarda tiklash imkoni bo'lmagan taqdirda, ularni ta'mirlash vaqtida texnik xususiyatlari bo'yicha nosoz uskunalar o'xshash soz uskunalar taqdim etiladi.

Quyidagilarga yo'l qo'yilmaydi:

Uskunadan foydalanish bo'yicha kafolat majburiyatlarini cheklovchi kafolat stikerlari, plombalar va shu kabilarga yo'l qo'yilmaydi (masalan, agar ishlab chiqaruvchi bunday

imkoniyatni nazarda tutgan bo'lsa, qo'shimcha kengaytirish platalarini, shassi opsiyalarini va boshqalarni o'rnatish imkoniyatini cheklash maqbul emas), ishlab chiqaruvchining texnik shartlariga rioya holatlari qilish bundan mustasno.

Boshqa shartlar:

Uskunalar O'zbekiston Respublikasi hududida amal qilayotgan me'yorlarga muvofiq sertifikatlangan bo'lishi shart.

Mahsulot yetkazib beruvchi O'zbekiston Respublikasi hududida taklif etilayotgan uskunalar servisi xizmat ko'rsatish vakolatiga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasidagi servis markazlari haqidagi ma'lumotni, takliflar so'rovi ishtirokchisi tomonidan yetkazib berilayotgan uskunalar ishlab chiqaruvchisining avtorizatsiya sertifikatlari nusxalarini ilova qilgan holda taqdim etishi shart. Shartnoma tuzilgandan so'ng, kafolat xizmati ko'rsatiladigan uskunalarining seriya raqamlari ko'rsatilgan kafolat sertifikatini majburiy tarzda taqdim etish lozim.

Mahsulotlarni qabul qilish dalolatnomalari imzolangan sanadan boshlab kamida 24 oylik kafolatli xizmat ko'rsatishning tugashi Yetkazib beruvchi tomonidan Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning to'liq bajarilishi deb hisoblanadi.

Buyurtmachi sifatsiz tovarni qabul qilmaslik va sifatsiz tovar taqdim etganligi uchun Yetkazib beruvchiga jarima belgilash huquqiga ega.


Xaridning qolgan shartlari Shartnomada belgilanadi.

AXvaRD IXB katta mutaxassisi
(lavozimi)


imzo


D.B. Raximov
(famiyasi, ismi sharifi)

AXvaRD PRvaOJQTG rahbari
(lavozimi)


imzo


T.X. Bisembayev
(ismi sharifi)

AXvaRD IXB boshlig'i
(lavozimi)


imzo

O.T. Kadirov
(ismi sharifi)

AXvaR bo'yicha direktor
o'rinbosari
(lavozimi)


imzo

B.S. Xodjajev
(ismi sharifi)

Texnik xususiyatlar

Nomi	Tavsifi	O'lchov birligi	Ehtioy
Videokuzatuv kamerasi (ichki)	IP - 2MP videokamera-30M-IR 1/3» Progressive CMOS, ICR, 0.01lux/F1.2, 1920×1080::25fps(P)30f, H.265+/MJPEG Fixed IR lens-4-6mm + POE - DWDR ichki mikrofon bilan. Suv o'tkazmaydigan metall korpus	dona	45
Videokuzatuv kamerasi (tashqi)	Aniqlik: 5.0MP H.265+/H.265/H.264+/H.264/MJPEG Yoritish: Smart IR 30 metrgacha. 3D DNR video shovqinlarni kamaytirish. Himoya darajasi: IP67 PoE IEEE 802.3af	dona	264
NVR	Video siqish formati H.265/H.265+/H.264/H.264+/MPEG4 Ikki tomonlama audiokirish 1 kanal, RCA (2.0 Vp-p, 1kΩ) Audiochiqish 1 kanal, RCA (Chiziqli, 1 KΩ) Oqimlar soni 2 Asosiy oqim 8Mp/ 6Mp/ 5Mp/ 4Mp/ 3Mp/ 1080p/ UXGA/ 720p/ VGA/ 4CIF/DCIF/ 2CIF/ CIF/ QCIF Oqim turi Video, video va audio Sinxron ko'rsatish: 2 ta kanal @ 8 Mp (25 k/s) / 4 ta kanal @ 4Mp (25 k/s) / 8 ta kanal @ 1080p (25 k/s), maksimal 32 ta video kanal SATA qattiq diski: 2 SATA, har birining hajmi 8 TB gacha Qo'llab-quvvatlanadigan standartlar IEEE 802.3af, IEEE 802.3at USB-interfeys Old panel: 1 × USB 2.0; Orqa panel: 1 × USB 3.0 O'lchamlari 385 × 315 × 52 mm	dona	3
HDD 6 Tb	WD - Purple - (Binafsha rang) - HDD - Disk - 6 Tb Professional videokuzatuv uchun disk	dona	15
8-PORT POE switch+1Lan	L2, Unmanaged, 8-PORT POE + 2Gigabit-port uplink port, 802.3af/at, PoE power budget 120W. Kanallar bo'yicha quvvat taqsimoti (W). 8 ta kanaldan bir vaqtning o'zida Ethernet 1/2/3/6 va 4/5/7/8 kabellari orqali ta'minot. UTP simining uzunligi 250-300 metr	dona	118
HUB 8-PORT switch	Stol usti kommutatori Intellekt: 8 ta 10/100 Mbit/s Ethernet port, ADI / ADIX, MAC manzillarni avtomatik saqlash, ixcham dizayn, devorga yoki stolga o'rnatish imkoniyati, sodda sozlash, tarmoq protokollari: IEEE 802.3, 802.3u, 802.3x, 802.3af, 802.3at, MAC-adreslar jadvali hajmi: 1K, ma'lumot uzatish tezligi: 1,6 Gbit/s, paketlarni qayta yo'naltirish tezligi: 1,1904 Mb/s, korpus: ABS-plastik, og'irligi: 0,041 kg O'lchamlari: 124 * 59 * 23,2 mm. Ish sharoiti: 0°C dan 40°C gacha	dona	3
FTP simi	Tarmoq kabeli, FTP himoyalangan 8X0,52 mm o'ralgan juftlik, video kameralar va videodomofonlar uchun - tashqi va ichki o'rnatish uchun mo'ljallangan. Andijon - qora rangli kabel	m	2560
Germetik quti 11X11	Germetik quti 11X11	dona	100
Tarmoq filtri	Elektr ta'minotini 5 ta ulagichga ulash uchun	dona	15
RJ-45 konnektori	Tarmoq kabellarini ulash uchun RJ-45 konnektorlari	dona	580